



## “BOBURIYNOMA”DA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZINING DADIY TALQINI

Olmos Xurramov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Xayriddin Sultonovning “Boburiynoma” romanida Bobur va boburiylar obrazining badiiy talqini haqida mulohazalar bildirilgan. “Boburiynoma” romanida tarixiy faktlar asosida Bobur mirzoning ruhiy olami badiiy yo‘sinda ifodalanganligi atroflicha tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarixiy roman, tarixiy syujet, ma’rify roman, Bobur va boburiylar obrazi, biografik talqin, poetic mahorat.

**Annotatsiya:** В статье комментируется художественная интерпретация образа Бабура и бабуритов в романе Хайдина Султанова «Бабуринома». На основе исторических фактов подвергнуто детальный анализ художественного выражение духовного мира Бабур-Мирзы в романе «Бабуринома».

**Ключевые слова:** исторический роман, исторический сюжет, просветительский роман, образ Бабура и бабуритов, биографическая интерпретация, поэтическое мастерство.

**Annotation:** The article comments on the artistic interpretation of the image of Babur and the Baburites in Khairiddin Sultanov’s novel “Baburiinoma”. Based on historical facts, a detailed analysis of the artistic expression of the spiritual world of Babur Mirza in the novel “Baburiinoma” was subjected.

**Key words:** historical novel, historical plot, educational novel, image of Babur and the Baburites, biographical interpretation, poetic skill.

P.Qodirovdan keyin o‘zbek tarixiy adabiyoti Mirzo Bobur va boburiylar hayoti aks etgan epik, dramatik, lirik asarlar bilan boyidi. Tarixiy-adabiy jarayondagi takomil bosqichlarining bir yorqin misoli sifatida yozuvchi X.Sulton nasrini ko‘rsatish mumkin. U o‘zining qator hikoyalari, qissalari va “Boburiynoma” romani bilan Bobur va boburiylar obrazi talqiniga yangi qiyofa, yangicha ruh olib kirdi.

Adabiyotshunos A.Nosirov bu haqda shunday yozadi: “Bobur siymosi jahon va o‘zbek adiblarining qalbini larzaga solganligi beziz bo‘lmasa kerak, deb o‘ylaymiz. Shuning uchun ham yozuvchi Xayriddin Sulton Boburning ruhiy olamini, qalb tasvirini, nozik his-tuyg‘ularini shuningdek, saroydagi mehrsizlik, oqibatsizlikni tarixiy faktlar asosida , so‘fiy alloma Hofiz Ko‘ykiy bilan bo‘lgan suhbatlarda jonlantiradi. Yana diqqatga sazovor joyi shundaki, Xayriddin Sulton talqinida Bobur Mirzo Alloh karamiga sazovor xosiyatli shaxs bo‘lganligi asosli ochilgan. Bobur Mirzoning tushlari, ularning hayotda sodir bo‘lishi shayxi buzurg Xoja Ahror, uning nabirasi Xoja Ya’qub munosabatlarida ishonarli jonlanadi. Xoja



Ahrorning “Voldiyya” risolasini forschadan turkiy tilga tarjima qilishining sabablari yechiladi. Tarixiy fakt badiiylikka o‘rangach, o‘zining butun mohiyatini, “insoniyligini” ko‘rsatadi”.<sup>1</sup>

Yana bir tadqiqotchi Sh.Sapiyeva X.Sulton ijodida Bobur siymosining talqin etilish tamoyillari xususida yozadi: “Xayriddin Sulton tarixiy mavzuga ko‘p murojaat qilgan, ayniqsa, Bobur Mirzo shaxsiyati, ijodi uni mudom qiziqtirgan, yangi-yangi izlanishlarga undagan. Shuning samarasi o‘laroq yaratilgan Bobur haqidagi hikoyalar, qissa va esselari adib ijodining deyarli yarmini tashkil etadi. Ushbu asarlar Bobur Mirzo qadami yetgan mamlakatlarga qilingan ilmiy ekspeditsiya xotiralari kompozitsiyasiga singdirilib, ajib falsafiylik kasb etgan – “Boburiynoma” ma’rifiy romani yuzaga kelgan. Bu asarni adib badiiy tafakkurining yuksak mahsuli deyish mumkin”.<sup>2</sup>

Ko‘rinadiki, X.Sulton ijodida Bobur va boburiylar shaxsiyati muhim o‘rin tutadi. Boburga bo‘lgan cheksiz muhabbat, “Boburnoma”ni sinchkovlik bilan o‘qish, Bobur yurgan yo‘llar bo‘ylab qilingan ilmiy ekspeditsiya natijasi sifatida yozuvchining dalillarga boy, tarixiy voqelik, obrazlar dunyosi teran psixologik talqin etilgan nasriy asarlari maydonga keldi. Ushbu tarixiy mavzuning badiiy talqiniga talabalik davridan kirishgan yozuvchi o‘zining bor iste’dodi, ijodiy quvvati, Bobur va boburiylarga bo‘lgan cheksiz muhabbatining isboti sifatida “Boburiynoma” romanini yozdi.

“Boburiynoma” nafaqat Bobur va boburiylarga doir tarixiy nasr, balki o‘zbek tarixiy adabiyotida yangi bir bosqichni boshlab berdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Roman mazmuni va shaklidagi o‘ziga xosliklar, bizningcha, quyidagilarda ko‘rinadi: birinchidan, roman voqeligiga, xuddi mumtoz dostonchilik, xalq qissalari yoki Yevropa ma’rifiy romanlaridagidek, safar motivi asosiy o‘rin tutadi; ikkinchidan, asarda biryo‘la uchta hikoyanavis parallel holatda ko‘zga tashlanadi. Bularning biri real muallif obrazi, boshqasi hikoyanavis-muallif obrazi, oxirgisi voqealarni bayon etayotgan tarixiy shaxs Bobur obrazidir; uchinchidan, roman markazida ma’rifat konsepsiysi yetakchilik qiladi. Mirzo Boburning hayot yo‘liga xos harb-u zARB, jahongashtalik, Vatan hajri, davlatchilik siyosati mana shu ma’rifiy g‘oya atrofida uyushtiriladi.

Adabiyotshunos S.Mirzayevning yozishicha: “Boburiynoma”ning ko‘pgina asarlardan farqi shundaki, adib unda hammaga ma’lum tarixiy fakt, voqeahodisalarni shunchaki takrorlamagan. Aksincha, ushbu mavzuda yaratilgan barcha

<sup>1</sup> Носиров А.Н. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини (“Юлдузли тунлар” романни мисолида). – филол. фан. номз.дисс. – Т.: 1999.-Б. 100.

<sup>2</sup> Сопиева Ш.Р. Хайдидин Султоннинг хикоянавислик маҳорати. – филол. фан. номз. дисс. –Т.: 2006.-Б. 4.



ilmiy va badiiy asarlarga samimiy hurmat bilan munosabatda bo‘lgani holda o‘z tasvir yo‘lidan borgan. Xayriddin Sulton ko‘pchilikka ma’lum bo‘lman yangi materiallar, noyob hujjatlar, shu davrgacha e’tibor qilinmagan muhim voqeahodisalar vositasida Bobur shaxsiyatining nihon qirralarini ochib berishga harakat qilgan, o‘zgacha talqin-u tasvirlar, yorqin obrazlar yaratib, tarixiy haqiqatni badiiy yo‘sinda qayta tiklagan”.<sup>3</sup>

“Boburiynoma”ning ma’rifiy roman ekanini ko‘rsatadigan muhim bir jihat shundaki, bu asar ham xuddi “Boburnoma” kabi “Bismillohhir rohmanir rahim” kalimasi bilan boshlangan. Holbuki, XX asrning 30-yillaridan “Boburiynoma”gacha yozilgan bironta asar Qur’oni karimning ochuvchi oyati bilan boshlanmagan edi. Milliy adabiyotimiz ajdodlarning ming yillik adabiy an’analaridan mutloq uzilgan edi. Bu bilan “Boburiynoma” mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining azaliy an’analariga tomon qayta yuz burganidan mujda berdi.

Romanning ikkinchi jumlesi shunday jaranglaydi: “Tangri taoloning inoyati birla Allohning ulug‘ va sirli bir bandasi xususida so‘z aytmoqqa jazm qildik”.<sup>4</sup> Ushbu jumla tahlili bizni shunday xulosalarga olib keladi:

- yozuvchi o‘z maqsad-muddaosini amalga oshirishini so‘rab botinan Allohga munojot qiladi;
- boshlagan ishini o‘z iste’dodi, bilimi, mahoratiga emas, Allohning inoyatiga bog‘liqligini e’tirof etadi;
- ijodiy tasavvurida Bobur siymosi, Bobur yashagan davr ruhini uyg‘otish, asarga ham boburona ohang bag‘ishlash maqsadida “Boburnoma” uslubiga murojaat qiladi;
- Allohning “ulug‘” va “sirli bandasi” sifatlashlarini qo‘llash asnosida Bobur shaxsiyatiga nisbatan botiniy ehtiromini ifodalaydi.

Davom etib: “Aslida, uning umr yo‘li boshdan oyoq taqdir imtihonlaridan iborat edi, desak, yanglish emas”, jumlalarini yozar ekan, ma’rifiy adabiyotga xos eng muhim xususiyatni namoyon etadi.<sup>5</sup> Haqiqatdan ham, mumtoz ijodkorlarning asarlarida inson boshiga keladigan har qanday yaxshi-yomon kunlar taqdirdan ekani e’tirof etiladi. Mirzo Boburning o‘zi ham “Boburnoma” yoki boshqa asarlarida taqdir hukmining haq ekanini har satrida tan oladi. Bu jumlanı yozayotgan muallif pafosi ham, shu nuqtada, Bobur ruhiyati bilan ma’naviy-ma’rifiy hamohanglik kasb etadi.

<sup>3</sup> Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T.: “Yangi asr avlodи”, 2005. – B. 413.

<sup>4</sup> Султон Х. Бобурийнома. Маърифий роман. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 3.

<sup>5</sup> Кўрсатилган асар. – Б. 3.



Romanning o‘ziga xos Muqaddimasida Bobur hayot yo‘li va tarixiy-badiiy siyemosini boburona qisqa satrlarda chizgan muallif quyidagi ikki misra vositasida roman badiiy zamonini real muallif tomon buradi:

Bilmadim, o‘n uchmidi, o‘n to‘rtmidi yoshim,

Shu sirli savdoga duch keldi boshim.<sup>6</sup>

She’riy misrada aks etgan “savdo” so‘zi roman matnida ikki ma’noni ifodalaydi. Bularning birinchisi umuman, ijod ishqisi – yozuvchilik savdosi. Ushbu so‘z ayni nuqtada taqdir, qismat ma’nolarini ham anglatadi. Muallif bu bilan o‘n uch – o‘n to‘rt yoshlaridan ko‘ngliga ijod ishqisi tushganini, bu uning taqdiri ekanini ta’kidlaydi. Ikkinchidan, bu savdoning sababchisi boshqa bir hayotiy zaruratlar emas, aynan Bobur shaxsiyati ekaniga urg‘u beradi. Muallif boshiga tushgan bu “savdo” xuddi Bobur taxtga o‘tirgan yoshga to‘g‘ri keladi. Bu jihatdan ham muallif va tarixiy qahramon o‘rtasida uyg‘unlik kuzatiladi. “O‘n to‘rt yoshlarimda ilk bor bu nuroniy siyemoning tasviri chekilgan suvratni ko‘rdim. Olis qishloq maktabi, qahraton qishning dilgir kunlari, adabiyot xonasi devoriga osilgan muhtasham portret va undan muloyim tabassum ila boqib turgan, shohona sallasiga ukpar jig‘a qadalgan ulug‘ sifat insonning bori-borlig‘i murg‘ak tasavvurimga shu qadar teran o‘rnashdiki, dars paytida ham, tanaffus chog‘lari ham uning mardona chehrasidan ko‘z uzolmas edim”, deya tasvirlaydi bu holatini muallif.<sup>7</sup> Bo‘lajak yozuvchining bu holatida Bobur shaxsiyatiga bo‘lgan havas, cheksiz muhabbat, shu bilan birgalikda, ijod ishqisi aks etgan.

Yozuvchi shu tariqa asta-sekinlik bilan o‘quvchini o‘z ijod olamiga, bu orqali Bobur va boburiylar hayot yo‘liga olib kiradi.

Romanning “1974-yil. 12-mart. Parkent” deya yozilgan sanasi aniq keltirilgan dastlabki qismida Bobur badiiy-tarixiy biografiyasining ilk davri bilan tanishamiz. X.Sulton xuddi mumtoz ma’rifiy dostonlari yoki xalq qissalarida bo‘lganidek romanni qahramonning tug‘ilishi bilan boshlaydi. O‘z boshlanmasiga “Yo‘lbarsning tug‘ilishi” deya sarlavha qo‘yadi.

Ko‘rsatilgan sanada tug‘ilgan yurti Parkentda ta’til kunlarini o‘tkazayotgan talaba imtihon topshirishi lozim bo‘lgan “Markscha-lenincha falsafa assoslari” kitobini bir chetga qo‘yib, “Boburnoma”ni o‘qiydi. Xayolini Mirzo Boburning tug‘ilishi haqida bir narsa yozish orzusi band etadi. Erta bahor yomg‘iri ostida tug‘ilgan shu orzu natijasi bo‘lib adibning Bobur haqidagi ilk asari maydonga keladi. Bu Boburning tavalludiga oid xayoliy-to‘qima asar, aniqrog‘i “Yo‘lbarsning

<sup>6</sup> Кўрсатилган асар. – Б. 5.

<sup>7</sup> Кўрсатилган асар. – Б. 5.



tug‘ilishi” nomli ssenariy edi. Yozuvchining o‘zi bu asariga kamtarona baho beradi. O‘quvchiga murojaat qilib: “E, men buni chiqaraman deb yozibmanmi, o‘zim uchun yozdim-qo‘ydim-da”, deb yozadi.<sup>8</sup> Ammo asarda ko‘tarilgan badiiy g‘oya, tasvirlarning tiniqligi, syujetdagi izchillik yozuvchi-talabaning yorqin iste’dodidan darak beradi.

X.Sulton ham xuddi P.Qodirov kabi o‘z asarini A.Qodiriy uslubiga xos yo‘sinda boshlaydi: “Hijriy sakkiz yuz sakson sakkichinchi yil, muharram oyi. Andijon...”<sup>9</sup> Shundan keyin makon tasviri keladi. Umarshayx Mirzo saroyi, qor bosgan devorlar, tomlar, madrasalar minoralar manzarasi, azon tovushi, odamlar izdihami tasvirlanadi. Bunda yozuvchi voqeа xarakteridan kelib chiqib, asarga roviy-hikoyachi obrazini kiritadi. Roviy voqealar oqimini boshlab beradi. Birin ketin asar tarkibiga Umarshayx Mirzo, Qutlug‘ Nigorxonim, Yunusxon, Eson Davlatbegim, Hasan Qovchin obrazlari kirib keladi. Yozuvchi Umarshayx Mirzo portretini chizar ekan, “Boburnoma”, qisman “O’tkan kunlar” uslubidan foydalangani bilinadi. “Past bo‘ylik”, dumaloq soqollik, mo‘g‘uliy bo‘rk kiygan...”<sup>10</sup> Boshqa portretlar tasviri ham deyarli shu tarzda davom ettiriladi. So‘ng ko‘chada shovqin solib o‘ynab yurgan bolakaylarga mahzun nigohini tikib o‘tirgan Qutlug‘ Nigorxonim portreti, uning ruhiy holatiga mos ravishdagi tasvir keladi.

O‘quvchi bu shohona oilaning yetti yildan beri farzand ko‘rmayotganini roviy tilidan biladi. Bu jihat ham o‘quvchiga tanish. Aksariyat xalq dostonlaridagi qahramonlar uzoq va intizorlik bilan kutiladi. Ko‘pincha xalq doston va ertaklari qahramonining tug‘ilishi karomat, iltijo, munajaat, bashoratlar vositasida ro‘y beradi. X.Sulton ham xuddi shu yo‘lni tanlaydi. Tug‘ilajak qahramonning momosi Eson Davlatbegim tush ko‘radi: “Bul kecha ajib bir tush ko‘ribmen,-deydi u Yunusxonga.-Rahmatli momom bilan chorborg‘da yurgan emishmiz. Menga bir hovuch yong‘oq bergen emishlar...”<sup>11</sup>

Keyingi epizod ham xalq ijodiyotini yodga soladigan ov bilan bog‘liq. Homilador Qutlug‘ Nigorxonimning ko‘zi yorishi arafasida Umarshayx o‘z a‘yonlari bilan ovga chiqadi. Jayronni ta’qib etib, sheriklaridan uzilib qoladi. Bu bizga “Shohnoma”dagi Siyovush qissasidagi bir epizodni eslatadi. Ammo ta’qib epizodini X.Sulton tamomila boshqa o‘zanga soladi. Ta’qibchi Firdavsiy qahramoni Kaykovusga o‘xshab malika Rudobaga emas, balki ko‘zi yoriyotgan urg‘ochi yo‘lbarsga duch keladi. Shu tariqa Boburning tug‘ilishi haqidagi voqeа bobur-

<sup>8</sup> Кўрсатилган асар. – Б. 10.

<sup>9</sup> Кўрсатилган асар. – Б. 10.

<sup>10</sup> Кўрсатилган асар. – Б. 10.

<sup>11</sup> Ўша жойда. – Б. 11.



yo‘lbars haqidagi afsonaga ulanib ketadi. Talaba tomonidan yozilgan kichik bir ssenariy mana shunday ulkan voqeani qamrab oladi. Bir tomondan Bobur haqida mo‘jaz san’at asari dunyoga kelsa, ikkinchi tomondan bu asar o‘zbek nasri kelajagi iste’dodli bir yozuvchi bilan boyiyotganidan darak beradi.

“Boburiynoma”dagi birinchi asar Parkentda, yozuvchi tug‘ilib o‘sgan manzilda yozilgan. Ayni paytda, bu joyda Bobur ham bo‘lgan. Parkentda o‘tkazgan kunlarini o‘z “Boburnoma”sida bayon va tasvir etgan. Xuddi shu makon va shu voqealari – Boburning tug‘ilishi voqeasidan e’tiboran X.Sultonning Bobur yoki “Boburnoma”da tasvirlangan yo‘l bo‘ylab safari boshlangan. “Boburiynoma” mazmuni, shakliy-kompozitsion o‘ziga xosligi shu tamoyilga qurilgan. X.Sulton obrazlari dunyosiga dastlab ushbu ssenariy orqali chaqaloq Bobur, uning otasi, onasi bobo va buvisi obrazi kirib kelgan. Ssenariy talablaridan kelib chiqilganda, “Boburiynoma”dagi ilk asar obrazlarining deyarli barchasi epizodik planda, rivoyat va afsonalar fonida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ularni mukammal tarixiy obrazlar desak, to‘g‘ri bo‘lmaydi. Lekin shunisi muhimki, “Boburiynoma” obrazlar olami aynan shu asardan ibtido oladi.

“Boburiynoma”ning umumiy kompozitsion tizimi shunchaki badiiy asarga xos shakl-mazmun qurilishi bo‘lmay, asar muallifi hayot yo‘li, ijtimoiy, ijodiy biografiyasi bilan qo‘shilib ketgan. “Boburiynoma” davomida keladigan barcha badiiy bo‘laklar, safar tafsilotlari shu tamoyilga ko‘ra tasniflangan.

1975- yilda muallif hali talabalik paytida Bobur haqidagi ikkinchi asar – “Oy botgan pallada” hikoyasi yozilgan. Romanning muallif biografiyasi aks etgan izohlovchi, bog‘lovchi kompozitsion qismida bu asar “Oqtosh” sihatgohida boshlanib, Toshkent shahridagi 11-talabalar yotoqxonasida tugatilgani aytildi.

Hikoya xronologik jihatdan, ma’lum tartibga ega. Unda hijriy 907, melodiy 1501-yil voqealarining Bobur hayotiga doir bir muhim epizodi tasvirlangan. Bu epizod otasidan ajragan yosh Boburning Parkent va Somsarak diyorlarida kechgan darbadar kunlari, No‘yon ko‘kaldoshning o‘limi haqida. Hikoyada Bobur shaxsiyatiga xos uchta qirra ko‘zga yaqqol tashlanadi: yosh, chapdast, shijoatli, tadbirkor, sermulohaza Bobur; shoir va dunyo sirlarini bilishga intilayotgan olim Bobur; ko‘ngli, ichki olami o‘ta nozik, musibatlar qurshovidagi tragik Bobur obrazi.

Shayboniyxondek tajribali, ayyor yog‘iy ta’qiblariga teran mushohada va harbiycha tadbirkorlik bilan chap berib borayotgan Bobur, Somsarakda 111 yoshli kampirni uchratar ekan, solnomachi, tadqiqotchiga aylanadi. Kampirdan bobokalonni



Amir Temur hayotining tafsilotlarini so‘raydi: “Jannatmakon Amir Temur davri davronidagi ishlar xotiringizda bordir”.<sup>12</sup>

Ahmad Qosim tomonidan No‘yon ko‘kaldoshning xoinona o‘ldirilgani haqidagi xabarni eshitgan Bobur tamomila o‘zga odamga aylanadi: “Bobur bo‘tana suv toshib yotgan ariqdan o‘tib, jar etagiga qarab yurdi. Shamoldan pana bir joyga muk tushib, muzdek ho‘l toshga yuzini bosgan ko‘yi uzoq jim qotdi...

- Kam kishining vafotidan muncha mutaassir bo‘lib edim...”<sup>13</sup>

Roman muallifi taqdirning hukmi bilan Bobur va boburiylarni o‘rganish maqsadida tuzilgan ekspeditsiya a’zosiga aylanadi. Ekspeditsiya oldidagi kechani Toshkentdagи “Labzak” mehmonxonasida o‘tkazadi. Shunda 1983-yili Toshkent shahrining 2000 yillik to‘yi munosabati bilan yozgan “Panoh” nomli hikoyasini eslaydi. Chunki bu hikoya Bobur jahongashtalik hayotining Toshkent bilan bog‘liq pallasiga to‘g‘ri keladi. Shuning bilan birgalikda, “Boburiynoma” muallifi turgan makon bilan badiiy parallelizmga ega. Agar hikoya qahramoni Bobur dushmani ta’qibidan qochib Toshkentdagи bobosi Yunusxonadan panoh so‘rab kelgan bo‘lsa, vatani mustaqillikka erishgan roman muallifi poytaxt Toshkentdan Bobur izlarini izlab safarga otlanadi.

Ahmad Tanbal bilan janglar qilib, uning nomardlarcha qilgan xiyonatini anglab, yarador bo‘lib, Toshkentga bobosi panohiga kelgan Bobur ko‘ngli dardalamga to‘la edi.

-O‘z qilichimni o‘z bag‘rimga sanchdilar! – dedi Bobur Mirzo uh tortib. – Shundoq xiyonatdan so‘ng inson zotiga inonib bo‘lurmi?!<sup>14</sup> Bu Bobur hayotining eng fojiali kunlari edi. Do‘srlarning, yaqinlarning, qo‘l ostidagilarning xiyonatini o‘z ruhi va tanasida sinab ko‘rgan Bobur shunday keskin xulosaga keladi. Ammo Yaratgan Boburdek imon-e’tiqodli bandasini hech qachon arosatda tashlab qo‘ymaydi. Musibatlar yaxshi kunlar bilan almashinib turadi. Toshkent qal’asiga kelganlarida ularni dabdurustdan tanimagan mo‘g‘ul askarlari darvozani ochmaydilar. Hatto dushman anglab, ularga qurol o‘qtaladilar. “O‘ron” (parol)ni so‘rab tahdid qiladilar. Shunda Bobur yana ilohiy qo‘llovni his qiladi. Ko‘ngliga ilohiy tarzda yalt etgan so‘zni aytadi: “Sayram!” Darvoza ochilib, qochqinlar Yunusxon panog‘iga olinadi. Shu joyda Boburning faxr-iftixor bilan aytgan so‘zları yangraydi:

<sup>12</sup> Ўша жойда. – Б. 30.

<sup>13</sup> Ўша жойда. – Б. 32.

<sup>14</sup> Ўша жойда. – Б. 52.



- Toshkand – onam Qutlug‘ Nigor xonimning ota yurti-ku! Toshkand – mening ona shahrim-ku, Qosimbek!.. Qani marhamat!<sup>15</sup>

“Panoh” hikoyasidan keyin muallif ishtirokidagi ilmiy ekspeditsiya uzoq safarga otlanadi. Bobur yurgan yo‘llarga doir sir-sinoatlarni kashf etishga kirishadi. Badiiy-publitsistik ruhdagi bitiklardan ma’lum bo‘ladiki, ekspeditsiya a’zolari ham yo‘l davomida o‘z Vatanlari, vatandan tashqari bo‘lgan olam turfaliklarini, odamlarni, muhim tomoni o‘z-o‘zlarini ma’rifiy jihatdan kashf eta boradilar. Bobur shaxsiyatining shunchaki bir harb kishisi, shoргina emas, Allohning suyukli bir bandasi sifatidagi sinoatlarini ham anglaydilar.

Bunday jihatlar ayniqsa “Boburning tushlari” esse-qissasida bevosita ko‘zga tashlanadi. “Boburnoma”ning ilohiy yog‘du bilan munavvar sahifalarida Boburning g‘aroyib tushlari tafsiliga duch kelamiz deb yozadi bu haqda muallif<sup>16</sup>.

Muhimi shundaki, roman muallifi “Boburnoma”da keltirilgan Bobur tushlari tafsiloti va ta’rifi bilan cheklanib qolmagan. Har bir tush to‘g‘risida so‘z yuritishdan oldin tushgacha bo‘lgan Bobur biografiyasiga xos tegishli voqealar, atrof-tevaragidagi shaxslar, munosabatlар, muloqotlar haqida fikr yuritadi. Sovet davri adabiyotshunosligi, tarixida bu hodisalarga berilgan baho va talqinlarni tahliliy o‘rganadi. Shundan so‘nggina tush tafsiloti, mazmuni, uning “Boburnoma”, Bobur va boburiylar hayotidagi ahamiyati haqida xulosalar chiqaradi. Bunday o‘rinlarda beixtiyor muallifning boburona yo‘ldan ketayotgani, ilm, muhokama, qiyos va badiiyatni bir doirada jamlagani bilinadi, albatta.

X.Sulton Bobur tushlarini o‘ziga xos badiiy-ilmiy tamoyil asosida tasniflaydi. Tasnifda asosan “Boburnoma” kompozitsiyasidan kelib chiqishi bilan birga, o‘z ma’rifiy romanining qurilish tamoyillarini ham e’tibordan qochirmaydi. Hijriy 906 – 908-yillardagi tarixiy voqealar, bu voqealarning Bobur shaxsiyati, saltanati, avlodlari taqdirida tutgan o‘rni Boburning tushlari bilan chambarchas bog‘lanib ketadi. Samarqandni zabit etish, Tanbal navkarlari ustidan g‘alaba, Xoja Ahror valiyda ko‘rilgan Bobur tushlari, valiyning karomatlari... Bularning barchasi muallif tomonidan aniq bir tizimga solinib, moddiyuncha dunyoqarash, sobiq sho‘ro tuzumi bilan tanqidiy muqoyasa qilingan. “Moddiyuncha dunyoqarashning ulug‘ bir aybi buldirkim, u olamni sirru sehrdan, binobarin, jozibadan mahrum qilib qo‘yadi. U hamma narsani jo‘ngina mantiq qolipiga tortishga urinadi”<sup>17</sup>, deya xulosalaydi bu boradagi fikrlarini muallif.

<sup>15</sup> Ўша жойда. – Б. 58.

<sup>16</sup> Ўша жойда. – Б. 130.

<sup>17</sup> Ўша жойда. – Б. 135.



X.Sulton “Boburning tushlari” masalasiga ekspeditsiyaning Makka va Madina safari oldidan to‘xtaladi. Uning ilohiy ixtiyor, karomatga doir xulosalari ilohiyot nur sochib turgan Ka’batulloh tasviri bilan singgishib ketadi.

“Saodat sohili” tarixiy qissasi esa Bobur ekspeditsiyasining Hindistonga safari bilan bog‘lanib ketgan. Bobur va boburiylar maqbarasini ziyorat qilib, mahzun bo‘lib chiqqan muallif, beixtiyor o‘zining 1981-yilda yozilgan ushbu qissasini eslaydi.

Qissa haqida keyingi bobda fikr yuritishni rejalashtirganimiz uchun, dissertatsiyaning bu joyida ahamiyati jihatidan qissadan aslo kam bo‘lmagan muallif “hissa”si haqida to‘xtalamiz.

X.Sultonov qissaning yozilish tarixiga doir qiziqarli tafsilotlar, nashr etilishi bilan bog‘liq o‘z faxr va quvonchlarini izhor etish bilan bir qatorda o‘zining yozuvchilar uyushmasiga a’zo bo‘lishi, majlis kun tartibi, mazmuni haqida muxtasar so‘z yuritadi. Yozuvchining “Saodat sohili” qissasi o‘quvchilar, ijodkorlar jamoasi tomonidan iliq kutib olinadi. Ammo o‘scha davr siyosatining malayi bo‘lgan “nayzador domla”, maxsus idoralarda “fatvo” olgan mutaxassis qissa ustiga katta siyosiy ayb qo‘yadi. Majlisda qaltis vaziyat yuzaga keladi. “Garchi kalendor hisobiga ko‘ra saksoninchi yillar boshlangan bo‘lsa-da,-deb yozadi muallif bu haqda,-g‘oyaviy muhitimizda o‘ttizinchi yillarning mudhish nafasi goh oshkora, goh pinhona sezilib turardi. Men buni nayzador domlamizning otashin nutqidan so‘ng zalda o‘ltirgan ko‘pgina muhtaram adiblarning og‘ir sukutga cho‘mib, oqsoch boshlari egilib qolganida yana bir bor his qildim”.<sup>18</sup> “Hissa”da muallif Boburning quyidagi ruboiysini keltiradi:

Bobur, necha bu dahr meni zor aylar,  
Sabrimni kamu g‘amimni bisyor aylar.  
To dahr durur, budur aning rasmikim,  
Oyrib kishini azmidin xor aylar.

Ushbu bayt bir paytlar Bobur ruhiy olamining fojiaviy tasviri sifatida dunyoga kelgan bo‘lsa, XX asrga kelib X.Sulton qalbida kechgan izziroblarni ham to‘la ifodalaydi. Shu tariqa “Boburiynoma” muallifi va Bobur shaxsiyati o‘rtasida ruhiy robita, fojia bog‘lagan bir rishta paydo bo‘ladi.

Hindiston safari davomida muallif turli makon o‘zgarishlari munosabati bilan hamohang tarzda birma-bir boburiyzodalarni eslab o‘tadi. Masalan, Sikandara munosabati bilan Jaloliddin Akbarshoh tarixiga to‘xtaladi. Uning boburiylar saltanatida tutgan o‘rni, saltanat sohibi sifatida maqomi haqida so‘z yuritadi. Uning

<sup>18</sup> Ўша жойда. – Б. 345.



fe'l atvoriga to'xtaladi. "Bobur mirzo avlodlari orasida Akbarshoh eng shijoatli, eng qat'iyatli zot bo'lgan. Ulug' bobosi singari u ham o'n uch yoshida podshoh deb e'lon qilingan. U Hindistondek ko'p millatli, ko'p toifali, ko'p dinli, binobarin, ko'p muammoli davlatni qariyb yarim asr mobaynida mohirona boshqardi va uni taraqqiyotning yangi pog'onasiga ko'tardi. Shu sababli uning davlat arbobi sifatidagi noyob tajribasi hind diyorida bugun ham e'tibor bilan o'rganiladi",<sup>19</sup> deb yoziladi kitobda.

Agrada qad ko'targan Toj Mahal maqbarasini ziyorat qilayotgan muallif Shohjahon tarixi haqida fikr yuritadi. Dastlab Jahongir Mirzoning Xusrav, Parvez, Shohjahon, Shahriyor ismli to'rt o'g'li, ular orasida sultanat uchun kechgan kurash tafsiloti bayon etiladi. Bu kurashda Shohjahonning yengib chiqishi. Uning uzoq vaqt – 31 yil – sultanat surgani, bu davrda Hindistonda davlat-u madaniyati rivoj topgani haqidagi tarixiy dalillar eslanadi. "Bu muddat, tadqiqotchilar yakdillik bilan e'tirof etganlaridek, boburiylar davlatining gullab-yashnagan bir davri sifatida tarixga kirdi.

Shohjahonni zamondoshlari "Omadli shoh" deb ataganlar", deb yozadi bu haqda muallif. So'ngra uning shaxsiyati, tabiatи, davlatdorlikda erishgan muvaffaqiyatlari borasida o'z fikrlarini yozadi: "Chindan ham Shohjahonga barcha sohalarda omad va baxt-u saodat yor bo'lgan. Uning rahnamoligi va homiyligida bunyod etilgan o'lmas me'moriy obidalar rub'i maskunda beqiyosligi bilan necha avlodlarni hayratga solib keladi".<sup>20</sup> Muallifning ta'kidlashicha, Shohjahon tomonidan bunyod etilgan La'l qal'a, Masjid ul-lu'lu, Toj Mahal jahoniy miqyosdagi osori atiqalar sirasiga kiradi. Eng muhimi Shohjahon bu inshootlarni xalqqa zulm va zo'ravonlik qilmasdan, davlat mablag'i evaziga qurdirgan. O'z xalqi, raiyatiga esa "ota o'z farzandiga bo'lgandek mehribon edi".<sup>21</sup>

Arjumandbonu begim, ya'ni Mumtoz Mahal begim va Shohjahon muhabbat, yorining fojiali o'limi (1631-yil)dan keyin tiklangan Toj Mahal maqbarasi tarixi muallif tomonidan ulkan muhabbat, cheksiz armon bilan hikoya qilinadi. 1632-yilda boshlangan maqbara qurilishi 22-yil davom etadi. Tarixning chalkash o'yinini qarangki, mana shunda buyuk muhabbat sohiblaridan dunyoga kelgan to'rt o'g'il – Doro Shukuh, Murodbaxsh, Avrangzeb va Shoh Shujo'lar o'zaro toj-taxt talashib, Mumtoz Mahaldan bevaqt ajragan, keksa otalarini ko'p tashvishga qo'yadilar. Nasihatlariga quloq osmaydilar. O'zaro jang qiladilar. Bir-birlarini

<sup>19</sup> Ўша жойда. – Б. 350.

<sup>20</sup> Ўша жойда. – Б. 352.

<sup>21</sup> Ўша жойда. – Б. 253.



o‘ldiradilar. Uchinchi o‘g‘il Avrangzeb to‘ng‘ich akasi Doro Shukuhni qatl ettiradi. Keksa otasining so‘nggi yillarini uy qamog‘ida o‘tkazishga majbur etadi.<sup>22</sup>

Ma’rifiy romanning “Saodat sohili” qissasi keltirilgan joyidan so‘nggi sahifalarigacha turli makon o‘zgarishlari, ekspeditsiya safari munosabati bilan boburiy shahzodalar haqida hikoya qilinadi. Ammo muallif ularning tarixiy, maishiy va biografik hayotlari sahifalariga sof badiiy bo‘yoq berishni lozim ko‘rmaydi. Tarixiy dalillarni tartib bilan keltirish, ilmiy manbalarga tayanish orqali essenamo hikoyalash yo‘lidan boradi. Lozim o‘rinlarda boburiyzodalar faoliyati, erishgan yutuqlari, yo‘l qo‘ygan xatolariga o‘zining hissiy-emotsional munosabatini ifodalaydi. Kerak o‘rinlarda o‘z talqinlarini ruboiy, g‘azal baytlari bilan quvvatlaydi. Natijada o‘quvchi Bobur va boburiylar haqida badiiy-tarixiy, lirik-emotsional xulosaga ega bo‘ladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ёкубов И. Ўзбек романни тадрижи. – Т.: “Fan va texnologiya,” 2006.
2. Носиров А.Н. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини (“Юлдузли тунлар” романни мисолида). – филол. фан. номз. дисс. – Т., 1999.
3. Сопиева Ш. Р. Хайдариддин Султоннинг ҳикоянавислик маҳорати. – филол. фан. номз. дисс. – Т.: 2006.
4. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2005.
5. Султон X. Бобурийнома. Маърифий роман. – Т.: Шарқ, 1997.
6. Matyokubova, T., & Yakubov, I. (2020). Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews, № 7, pp. 28-37.
7. Matyokubova, T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118), 521-524
8. Yakubova S. The issue of «way» in cholpon's poetry. ISJ Theoretical & Applied Science. 2023. 02 (118), 490-492
9. Yakubov, I. “Boburnoma” - o‘zbek nasrining nodir yodgorligi. “Zahiriddin Muhammad Boburning Sharq davlatchiligi va madaniyatida tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, Toshkent, 2023. pp.174-179.

<sup>22</sup> Ўша жойда. – Б. 358-363.